




**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING  
YANGI O'ZBEKISTON  
RIVOJIGA TA'SIRI**

Xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





---

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON  
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ  
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT  
OF NEW UZBEKISTAN**

---

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023  
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrası "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi



### **MAS'UL MUHARRIR**

**Zahidov G'ofurjon Erkinovich** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### **TAHRIRIYAT HAY'ATI**

**G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

**Ahmedov Durbek Quدراتillayevich** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Mahmudov Nosir Mahmudovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Butaboyev Muhammadjon** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Islamov Anvar Ashirkulovich** - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**Ruziev Shohrusbek Ravshan o'g'li** - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mulaydinov Farxod Murotovich** – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası mudiri

**Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li**



Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

55	ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОПОВЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ - Ходжакулов Мухторжон Назаркулович,	241-246
56	ФОРМАЛИЗАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ СНИЖЕНИЯ РАЗМЕРНОСТИ ПРИЗНАКОВОГО ПРОСТРАНСТВА В ЗАДАЧАХ КЛАССИФИКАЦИИ - Х.Ш. Рашидов	247-254
57	YER OSTI KON ISHLARIDA FOYDALANILADIGAN TEXNIK ISHLANMALARNING INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH - U.M. Mamirov, U.T. Toshtemirov	255-256
58	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA SMART SHAHTALARNI TASHKIL QILISH - O.SH. Yormatov, U.T. Toshtemirov	257-258
<b>5-SHO'BA. QISHLOQ XO'JALIGIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI YER UNUMDORLIGI, HOSILDORLIK VA NASLLI CHORVA MOLLARINI YETISHTIRISH</b>		
59	ПАХТА-ТО'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI - Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o'g'li	260-262
60	BUGUNGI KUNDAGI OROL DENGIZI FOJIASI VA UNING OQIBATLARI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Esonaliyeva Madinabonu Shuxratjon qizi	263-264
61	SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z TUPROQLARDA BIOMIKROELEMENTLAR MIQDORI VA RAQAMLI XARITALASH - Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna, Abduvaxobova Ximoyatxon Ilxomjon qizi, Ma'rufjonov Javohir G'ayratjon o'g'li, Solijonova Dilafro'zxon Shuxratjon qizi	265-267
62	SHOHIMARDONSOY KONUS YOYILMA TUPROQLARIDA BIOMIKROELEMENTLAR BIOGEOKIMYOSI - Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna, Abdulazizov Asilbek Abdulahad o'g'li, Toxirova Madinaxon Rasuljon qizi	268-270
63	ZAMONAVIY DEHQONCHILIKDA TOMCHILATIB SUG'ORISH - Yusupova Mohidil Abdumutalibovna, Abdullaaxatov Asadbek Ilhomjon o'g'li	271-274
64	QUMLI TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI VA XOSSALARINING O'ZGARISHLARI - Yusupova Mohidil Abdumutalibovna, Ibroximov Shahroz Alisher o'g'li	275-277
65	MEVA VA SABZAVOTLI PASTILLALARNI QURITISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI - Xolikov M.M., Rahbar: Nasirova Sh.N.	278-280
66	QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI RIVOJLANISH OMILLARI - Xoliqov M.M.	281-282
67	ГЕОИНФОРМАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ПОДЗЕМНЫХ ВОД - Мадримов А.Ш.	283-291
68	SHOLINING UZROS-7-13 NAVI HOSILDORLIGIGA URUG' EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI - M.A.Mirzayeva, M.I.Teshaboyeva	292-295
69	СУФОРИЛАДИГАН ТИПИК БЎЗ ТУПРОҚЛАР ШАРОИТИДА БАҲОРГИ МУДДАТДА ЭКИЛГАН СОЯНИНГ 1000 ДОНА ДОН МАССАСИГА ТАСИРИ - Холиқов Аброр Тожимуродович, Қурбонқулова Умида Хусанқизи	296-298
70	QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHNING STRATEGIYASI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI - Kenjayev Toshbolta Aminovich	299-303
<b>6-SHO'BA. ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI</b>		
71	ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TURIZM SOHASIDAGI MUAMMOLARGA YECHIMLAR - Ro'ziyev Shohrusbek Ravshanjon o'g'li	305-308

**SHOLINING UZROS-7-13 NAVI HOSILDORLIGIGA URUG' EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI.****Dotsent M.A.Mirzayeva****O'qituvchi M.I.Teshaboyeva**

Farg'ona davlat universiteti

**ANNOTATSIYA:** Sholi eng qimmatli oziq-ovqat ekinlaridan biridir. Dunyo dehqonchiligida u ekilish maydoni va yalpi hosiliga ko'ra bug'doydan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Sholining issiqliksevar tabiati tufayli mo'tadil mintaqa mamlakatlarida cheklangan tarqalgan.

**Аннотация:** Рис – одна из самых ценных продовольственных культур. В мировом сельском хозяйстве она занимает второе место после пшеницы по посевной площади и валовому сбору. Из-за теплолюбивости риса он имеет ограниченное распространение в странах умеренного пояса.

**Kalit so'zlar:** sholi, aerenxima, oryza sativa L, to'pguli , ro'vak.

**Ключевые слова:** рис, аэренхима, Oryza sativa L, клубень, клубень

Sholidan mo'l hosil yetishtirish birinchi navbatda dalada yuqori hosilni ta'minlaydigan ko'chat qalinligiga erishishga bog'liq. Yetarli ko'chat qalinligiga erishish uchun esa ekishni o'z vaqtida, sifatli amalga oshirilishi kerak. Sholining yaxshi o'sishi va rivojlanishi, hosildorligini ortishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri urug'ni ekish muddatidir. Sholi qulay, maqbul muddatlarda ekilganda urug'larning to'la unib chiqishi ta'minlanadi. Sholi eng qimmatli oziq-ovqat ekinlaridan biridir. Dunyo dehqonchiligida u ekilish maydoni va yalpi hosiliga ko'ra bug'doydan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Sholi ekin maydonlarining asosiy qismi janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga, birinchi navbatda Birma, Xindiston, Indoneziya, XXR, Tailand, Filippin davlatlariga to'g'ri keladi. Umuman Osiyo mamlakatlari hissasiga sholining butun dunyodagi ekin maydonlarining 90 % to'g'ri keladi. Bu mintaqada dunyo bo'yicha yalpi sholi hosilining 90 % yetishtiriladi. Keyingi 15 yil davomida bu mintaqada sholi hosildorligi 30 % ko'proq oshgan. Lotin Amerikasida ham sholining yalpi hosili ekin maydonlarining kengayishi hamda hosildorlikni oshirish hisobiga ko'paydi. Sholining dunyoda o'rtacha hosildorligi 39,7 s/ga (2004 y) tashkil qildi. Yalpi hosil dunyo bo'yicha 608,5 mln.t bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarda dunyodagi sholi maydonining 3 % joylashgan, ammo dehqonchilik madaniyati yuqori bo'lganligi tufayli ular sholi doniga bo'lgan ichki ehtiyojini to'la qondirib, ayrimlari sholi sotish bo'yicha yirik eksport qiluvchi mamlakatlarga aylangan. Italiya, Avstraliya, AQSh sholi hosildorligi o'rtacha 60 s/ga atrofida. Dunyoda hozirda eng yirik sholi eksport qiluvchi davlatlar AQSh va Tailand. Ularga dunyoda sholi eksportini 1/4 qismi to'g'ri keladi.

O'zbekistonda sholichilik ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng jadal rivojlandi. G'alla mustaqilligiga erishishda sholining ahamiyati katta. Mamlakatimizda sholi asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxandaryo, Toshkent, Andijon viloyatlarida ekiladi.

Madaniy sholi (*Oryza sativa* L) uchta kenja turga - hind (*indica*) donlari ingichka uzun, (don uzunligini eniga nisbati 3,0-3,5:1), xitoy-yapon (*sina-japonica*) donlari kalta, eni(1,4-2,9 :1) va yaponga bo'linadi. O'zbekistonda asosan xitoy-yapon kenja turi tarqalgan. Har bir kenja tur bir qator belgilari bo'yicha tur xillarga bo'linadi.

Ildiz tizimi - popuk va yuza joylashgan, asosiy ildiz massasi tuproqning 25 sm qatlamida joylashgan. Ildizlarida shuningdek poya va barglarida ham havo to'lgan to'qimalar (*aerenxima*) bor. Shuning uchun sholi o'simligida tegishli kislorod konsentratsiyasi saqlanadi. Bitta o'simlikda 300 ildizlar bo'ladi. Doimo suv qavatida ushlanadigan sholida ildiz tukchalari kam, aksincha suv qavatisiz yoki vaqti-vaqti bilan suvga bostirilgan sholida ildiz tukchalari juda ko'p bo'ladi. Ildizlarning soni, ularning rivojlanganlik darajasi, tuproqqa chuqurga kirib borishi navga, tashqi muhitga, qo'llanilgan o'stirish texnologiyasiga bog'liq.

Poyasi-kovak poxolpoya, balandligi 80-120 sm, kuchli tuplanadi va ko'p hollarda shoxlanadi. O'rtacha bitta o'simlikda 3-5 mahsuldor poyalar hosil bo'ladi.

Barglari - lineyli lensetsimon, qovurg'ali tomirlangan, atrofi arrasimon o'tkirlashgan, barglari uzunligi 35 sm gacha, eni 1,5-2 sm. Ba'zan suv ostida qolgan barg bug'inlaridan illizlar hosil bo'ladi va qo'shimcha oziqlanishda ishtirok etishadi.

To'pguli - ro'vak, 20-30 sm uzunlikda. Boshqachalari bir gulli, bitta ro'vakda ularning soni 80 dan 200 yetadi. Gulida 6 changchi va uzunchoq onalik tugunchasi bor. Sholi uz-o'zidan changlanuvchi o'simlik.

Doni po'stli, yanchish paytida boshqachasi bilan, gul va boshqacha kipiklari bilan ajraladi, 1000 don vazni 27-38 g. Murtagi donning 2-5 % tashkil qiladi, po'sti 17-22 %. Noqulay ob-havo sharoitida po'stligi 35 % yetishi mumkin.

Sholining issiqliksevar tabiati tufayli mo'tadil mintaqa mamlakatlarida cheklangan tarqalgan. Uning to'liq rivojlanishi uchun o'rtacha yozgi harorat 22-30 ° C va vegetatsiya davrida 150 kun davom etadi, u 3300 dan 4500 gacha (o'simlikning pishib etgunga qadar butun o'sish davrining kunlari soniga ko'paytiriladi) kerak. Bu davrdagi o'rtacha harorat  $30; 3300=150 \times 22$ .

**UZROS-7-13.** O'simlik bo'yi 120-130 sm. O'suv davri 135-140 kun. Ro'vak uzunligi 18-20 sm, shishasimonligi 96-98%, amiloza miqdori 24%, qobiqligi 18,0-20,0%. Guruch chiqishi 72-73%, shu jumladan butun guruch chiqishi 90-95%. Yotib qolishga va to'kilishga chidamli.

Hosildorligi: Navdan qulay sharoitlarda 8,5-9,5 t/gacha hosil olish mumkin.

Agrotexnikasi. Urug'idan sepib ekish. Ekish muddati 20-30-aprel. Urug' me'yorlari 6,0 mln. dona/ga. Bir gektarga sarflanadigan suv me'yorlari 23000 – 25000 m<sup>3</sup>.

Mamlakatimiz hududida Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ekish uchun tavsiya qilingan.

**O'tmishdosh.** Sholidan mo'l hosil olishda almashlab ekishning roli katta. O'zbekiston sholichilik ilmiy tekshirish instituti ma'lumotlariga qaraganda, 4 va 6 dalali almashlab ekishda gektaridan 40-50 s hosil olingan holda surunkasiga sholi ekilgan maydonlarda hosildorlik atigi 25-27 s ni tashkil etadi. O'zbekistonda quyidagi almashlab ekish tizimi qabul qilingan: to'rt dalali: sholi, band shudgor, sholi ulushi 75%. Olti dalali: 1,2,3,4-dala sholi: 5,6-dala o'tlar. Bunda jami almashlab ekish maydonining 66,6% ni sholi band qiladi. To'qqiz dalali: 1,2,3-dala sholi: 4-dala band shudgor 5,6,7-dala sholi va 8,9-dala o'tlar. O'n dalali: 1,2,3,4-dalasi sholi: 5-dala band shudgor: 6,7,8-dala sholi 9,10-dala o'tlar. Bunday umumiy maydonning 70% sholi bilan band qilingan. Yetti dalali (urug'chilik xo'jaliklarida) 1,2-dala o'tlar: 3,4-dala sholi: 5-dala band shudgor: 6,7-dala sholi. Bunda sholi 57,1% ni tashkil qiladi. Yerni ishlash. Suv bostirilgan sholipoyalarda tuproqqa havo kirolmaydi. Shuning uchun zararli bo'lgan birikmalar: vodorod, sulfid, metan, temir (II) oksidi birikmalari, marganes va mikrofloraning anaerob sharoitida hosil bo'lgan boshqa mahsulotlar to'planadi. Bularning hammasi tuproq unumdorligini pasaytirib va bu o'z navbatida, sholi hosilining kamayishiga sabab bo'ladi. Bunday noqulay sharoitni bartaraf etish uchun sholi ekishga qadar, ya'ni kuz, qish va bahor davomida yerni yaxshilab quritish hamda 156 shamollatib turish zarur. Yerni yumshatish, shamollatish va quritish ishlari tuproqni maxsus agrotexnik qoidasi asosida ishlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Sholipoya va band shudgordan bo'shagan maydonlarni (o't ekilgan yerlar bundan mustasno) ishlash kuzgi shudgorlashdan boshlanadi. Yerni kuzda haydash sholi hosildorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Yerni kam mehnat va mablag' sarflab ishlashda qator mashinalar, jumladan: KFS-2,4, KFS-3,6, FN-1,6 rusumli kultivator, freza-seyalka, shuningdek PR-2, PR-2,7 rusumli rotatsion plug va boshqa mashinalar ham ishlatiladi. Mana shu mashinalar bir o'tishda bir yo'la bir necha ishni, masalan, yerni ekish oldindan ishlash, tekislash, ekish, o'g'it solish, gerbitsid sepish, yerni g'altaklash va boshqalarni bajaradigan bitta komplekt tuzish mumkin. Suv bostirilgan sholipoyalarda yerni ishlash quruq sholipoyalarni ishlashdagiga qaraganda bir nechta ish turini qisqartirishga imkon beradi. Sholi ekiladigan yerlarni ekish oldidan ishlashda marza cheklarni D-24 1 M va D-20 B rusumli greyderlarda yoki PA-3,P-2,P-4 rusumli uzun bazali tekislagichlarda joriy tekislash katta ahamiyatga ega.

O'tkazgan tajribamiz natijalariga asoslanib, Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumani sharoitida sepma usulida sholi urug'ini 30-apreldan 20-mayga qadar ekishni tavsiya qilamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Oripov R., Xalilov N. "O'simlikshunoslik" Toshkent – 2007.;
2. Tursunov.S., Teshaboyeva M "Sholi yetishtirish bo'yicha " tavsiyanoma 2013y.;
3. Teshaboyev N. et al. Urug 'ekish muddatlarining kuzgi bug 'doy navlari hosildorligiga ta'siri //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D7. – C. 118-121.
4. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Siddiqova, G., & Ro'Zmamatova, I. (2022). Urug 'ekish muddatlarining kuzgi bug 'doy navlari hosildorligiga ta'siri. Science and innovation, 1(D7), 118-121.
5. Raximov M., Saminov A. Aholi tomorqa xo 'jaliklarida va himoyalangan joylarda sabzavot yetishtirishning jadal texnologiyasi //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D6. – C. 231-236.
6. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Sheraliyeva, Z., & Xoliqova, O. (2022). Kuzgi bug 'doyni asrnavi hosildorligiga urug 'ekish muddatlarini ta'siri. Science and innovation, 1(D7), 122-125.